

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60411000 – Inson resurslarini boshqarish ta'lif yo'naliшining

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil “25” iyun dagi 218 – sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. Umumiy tavsifi.....	4
1.1. Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	6
3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar	7
4. Fanlar katalogining tuzilishi	7
Bibliografik ma’lumotlar	11
Kelishuv varag‘i.....	12

1. Umumiy tavsifi

60411000 - Inson resurslarini boshqarish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi (Oliy harbiy ta’lim muassasalari bundan mustasno). Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talablari 60411000 - Inson resurslarini boshqarish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

“Biznes, boshqaruv va huquq” ta’lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib, u turli mulk shakllariga tegishli tarmoq, sohalarning xo‘jalik yurituvchi sub’ektlari, moliya, kredit va sug‘urta muassasalari, davlat hamda mahalliy hokimiyat organlari, akademik va tarmoq, ilmiy tadqiqot tashkilotlari, maktabgacha, umumta’lim, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarning ijtimoiy, iqtisodiy, moliya, marketing, ishlab chiqarish – iqtisodiy va tahlil xizmatlarini o‘z ichiga oladi, tarmoqlar va korxonalarni rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko‘nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublari bilan bog‘liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

Davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar; iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida tashkilot, korxona va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish

jarayonlari; iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarida vaziyatli va tizimli yondoshuv tamoyillarini tatbiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari; tashkilot va korxonalarda inson rsurslarini boshqarish tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, mehnat munosabatlарини takomillashtirish hamda mehnatni rag‘batlantirish jarayonlari; firma va kompaniyalar, shuningdek, turli mulk shaklidagi korxonalarni boshqarish, ilmiy tadqiqot muassasalari va mahalliy davlat organlarida ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatni ta’minalash; ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlari.

60411000 - Inson resurslarini boshqarish bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgan taqdirda, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy–tadqiqot;*
- *tashkiliy–boshqaruv;*
- *axborot–tahliliy faoliyat;*
- *ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish;*
- *tadbirkorlik.*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60411000 - Inson resurslarini boshqarish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

ilmiy tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda iqtisodiyotning dolzarb yo‘nalishlari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi;

ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarni bajarish;

ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta’lim yo‘nalishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;

ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;

ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo‘yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalarda mehnat jarayonlari va faoliyatni tashkil etish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalarga tegishli mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o‘rganish;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalardagi muammolar mavzulari bo‘yicha mehnat munosabatlari va inson resurslarini boshqarishga doir axborotlarni yig‘ish, qayta ishslash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etishda qatnashish bo‘yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

fugorolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O‘zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;

dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

Vatan tarixini bilishi, ma’naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;

mehnatni muhofaza qilish me’yor va qoidalariga amal qilish.

xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni inson resurslarini boshqarish faoliyatini oqilona tashkil etishda mamlakatimiz va xorij tajribasini o‘rganish;

xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni texnika-iqtisodiy hisob-kitoblar va xo‘jalik faoliyati tahlilini olib borishda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish;

mehnatni muhofaza qilish me’yor va qoidalariga amal qilish.

korxona va tashkilotlarda ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumdarligini ta’minalash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar echimlarini amaliyatga tatbiq etish;

mehnat jamoalarini rejalashtirish va boshqarishni, boshqaruv faoliyati elementlari va ulardan boshqaruv jarayonida samarali foydalanish;

fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

korxonadagi bo‘lg‘usi rahbar kadrlarlarda o‘z ustida ishlash, yuklatilgan vazifalarning o‘z vaqtida, sifatli va yuqori mas’uliyat bilan bajarish, xodimlarni samarali boshqarish kabi xususiyatlarni shakllantirishi;

- inson resurslarini boshqarish sohasining nazariy va amaliy asoslari to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishi, inson resurslarini boshqarishning zamonaviy va samarali strategiyalarini ishlab chiqishi va amalga oshirishi;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

ishlab chiqarish jarayonlari va inson resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish;

korxona va tashkilotlarda inson resurslarini boshqarishning huquqiy asoslari va uni shartnomaviy tartibga solish;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarida HR xizmati bo‘limalarini tashkil etish;

korxona va tashkilotlarda kadrlar siyosatini ishlab chiqish;

korxona va tashkilotlarda mehnat unumdarligini oshirishda inson kapitali va inson resurslarini rejalashtirish;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat

resurslaridan samarali foydalanish tamoyillarini qo‘llash;

bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

ishlab chiqarish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma’lumot to‘plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

tashkilotning inson resurslarini boshqarish tizimini axborot-texnik ta’minalashni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni muvofiqlashtirish;

tashkilot va uning inson resurslarini boshqarish tizimi va texnologiyasini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy loyihalarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash;

kadrlar bo‘yicha tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, xodimlar faoliyatining turli ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yuritish;

mulkchilik shaklidan qat‘i nazar korxonalar xodimlari faoliyatini boshqarishni xalqaro amaliyot mezonlari, me’yorlari va talablari asosida tahlil qilish;

korxonalarning demografiyasi va xodimlar tarkibi ko‘rsatkichilari o‘zgarish tendensiyalari va dinamikasini tahlil qilish;

tahliliy masalalarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanish;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash.

Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish.

makro va mikro darajada inson resurslariga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash va inson resurslarini shakllanish omillarini tahlil qilish;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish tamoyillarini qo‘llash;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarida HR xizmati bo‘limalarini tashkil etish;

tashkilot va korxonalarda inson resurslarini boshqarish texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha faoliyatni muvofiqlashtirish: inson resurslarini strategik boshqarish va rejalashtirish, mehnat bozorida marketing va yollash, xodimlar faoliyatini baholash, malakasini oshirish, rag‘batlantirish va motivlashtirish, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va xodimlarni ijtimoiy himoyasini ta’minalash;

korxonalarda inson resurslarini boshqarish va nazorat qilish jarayonida ish faoliyatining sifati va miqdorini baholash;

inson resurlari boshqarishda innovatsiyalarni joriy etish; mehnat jamoalarini rejalahtirish va boshqarishni, boshqaruv faoliyati elementlari va ulardan boshqaruv jarayonida samarali foydalanish; makro va mikro darajada inson resurslarini shakllanish omillarini tahlil qilish; xodimlarni rag‘batlantirish va motivatsiyalash usullarini qo‘llash va inson resurslarini sifat jihatidan boshqarish; tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish tamoyillarini qo‘llash; inson resurslari xizmati va tashkilotning boshqa bo‘linmalari o‘rtasidagi funktsional munosabatlar tizimini shakllantirishni tashkil qilish; tashkilot va uning inson resurslarini boshqarish tizimining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish; bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish; ixtisoslikka mos mavzu bo‘yicha turli xizmatlarni ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

Tadbirkorlik faoliyatida:

yangi biznes-loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish;

tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish;

ijtimoiy innovatsiyalarni ishlab chiqish va ularni tadbirkorlik asosida takomillashtirish;

biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.

ta’lim yo‘nalishi ixtisoslik fanlarni o‘rganish va chuqur egallash uchun zarur bo‘lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko‘nikma va uquvlarni shakllantirishi; ta’lim yo‘nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

me’yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

ishlab chiqarishni tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda korxona (tashkilot)ni rivojlantirish strategiyasini qo‘llash, tadbirlarni rejalahtirish va amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

ijodiy fikrlash, muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

inson resurslarini boshqarishning zamonaviy usullarini joriy qilishni bilish;

kadrlarni boshqarish tizimi va texnologiyalarini ishlab chiqish, asoslash va tatbiq etishni bilish;

xodimlar tarkibini muvofiqlashtirish va rejalahtirish jarayonida ishtirot etish;

ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarining barcha bo‘linmalarida menejer lavozimida faoliyat yuritishni bilish;

kadrlarni boshqarishda avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

korxona va tashkilotlarga xodimlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish va

lavozimlarga biriktirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

inson resurslarini baholashning zamonoviy usullarini hamda inson resurslarini boshqarish tamoyillarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

korxona va tashkilotlarda samarali mehnat jamoasini shakllantirish;

mehnat ko‘rsatkichlarini, shu jumladan personalga xarajatlarni iqtisodiy tahlil qilish hamda inson resurslarini boshqarishning iqtisodiy samaradorligini baholashni bilish;

korporativ axborot tizimlarini, inson resurslarini tarkibi tahlili va hisobotlarni tayyorlashni, ma’lumotlar bazasini yuritishni bilish;

inson resurslarini strategik rejalashtirish, jamoa mehnatini samarali tashkil etish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga etakchilik qilishni bilish;

iqtisodiy o‘sish, strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta’minalashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatiga ta’luqli qarorlarni qabul qilishda, ularni aniq vazifalarga moslashtirish orqali iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruvi modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifatli tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

biznes jarayonlarini modellashtirish, biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes modellarini shakllantirishni bilish;

korxonani boshqarishda zamonaviy liderlikning konseptual asoslardan foydalanishi, korxonaning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini ta’minalashga qaratilgan liderlik strategiyalarini rivojlantirishi;

korxonada xodimlarning innovatsion faolligini qo‘llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirishi, xodimlarning innovatsion faolligi natijasida erishilgan ko‘rsatkichlar tahlilini amalga oshirishi, tahlil asosida xodimlarni rag‘batlantira olishi;

yangi tashkilotlarni (faoliyat yo‘nalishlari, mahsulotlari) yaratish va rivojlantirish uchun biznes rejalashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.yangi tashkilotlarni (faoliyat yo‘nalishlari, mahsulotlari) yaratish va rivojlantirish uchun biznes rejalashtirish bo‘yicha ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

1. Bitiruv oldi amaliyoti.
2. Ishlab chiqarish amaliyoti
3. Bitiruv oldi amaliyoti

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar			
1.01	AMAT11210	Amaliy matematika 1,2	300	10	1, 2
1.02	IQN11210	Iqtisodiyot nazariyasi 1,2	300	10	1, 2
1.03	IAKTT1105	Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar	150	5	1
1.04	XT11210	Xorijiy til 1 (ingliz, fransuz, nemis, koreys, yapon, xitoy)	180	6	1
1.05	XT21204	Xorijiy til 2 (ingliz, fransuz, nemis, koreys, yapon, xitoy)	120	4	2
1.06	O‘RT1204	O‘zbek (rus) tili	120	4	2
1.07	ITT1105	Iqtisodiy ta’limotlar tarixi	150	5	1
1.08	O‘EYT1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.09	DIN1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.10	JMS1204	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	2
1.11	AKKK1204	Akademik ko‘nikmalar va kasbiy kompetentlik	120	4	2
1.12	FAL1304	Falsafa	120	4	3
1.13	STAT1306	Statistika	180	6	3
1.14	EKMET1305	Ekonometrika	150	5	3
1.15	MIKIQ1305	Mikroiqtisodiyot	150	5	3
1.16	MEHIQ13410	Mehnat iqtisodiyoti 1,2	300	10	3,4
1.17	IRB1305	Inson resurslarini boshqarish	150	5	3
1.18	HFX1405	Hayot faoliyati xavfsizligi	150	5	4
1.19	MAKIQ1405	Makroiqtisodiyot	150	5	4
1.20	RECR1405	Rekrutment	150	5	4
1.21	MEHKT1405	Mehnat ko`rsatkichlari tahlili	150	5	4
1.22	DEMAS1505	Demografiya asoslari	150	5	5
1.23	HRAK 1505	HR audit va konsaltingi	150	5	5
1.24	KBKR1505	Karyerani boshqarish va kasbiy rivojlanish	150	5	5
1.25	HRFIY1605	HR faoliyatida ish yuritish	150	5	6
1.26	ITIK1505	Inson taraqqiyoti	150	5	5
1.27	IKI1605	Inson kapitali iqtisodiyoti	150	5	6
1.28	IHM1605	Ish haqi va motivasiya	150	5	6
1.29	MEHMSI1605	Mehnat munosabatlarida sun`iy intellekt	150	5	6
2.00		Tanlov fanlar	1650	55	4-7
2.00		Tanlov fanlar	1650	55	4-7
Kvalifikatsiya					
Iqtisodchi (HR menejeri)					
		Jami	6300	210	
		Malakaviy amaliyot	900	30	8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi			
		Jami	900	30	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma’lumotlar

UDK: 002:651.1/7


Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so‘zlar:

Kasbiy faoliyat turi, ta’lim yo‘nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o‘quv reja va fan dasturlari, profil, o‘qib-o‘rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o‘quv jarayoni, sifatni baholash va nazorat, mustaqil ta’lim, ishlab chiqarish, kompetensiya, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malakaviy amaliyot, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o‘quv fanlari bloki, oliy ta’lim muassasasi, ta’lim jarayoni, kredit-modul tizimi, xizmat ko‘rsatish, ijodiy fikrlash, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar iste’molchilari



KELISHILDI:

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor M.Boltabayev

2024 yil “25” 08

M.O.



Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston milliy universiteti

Rektor I. Madjidov

2024 yil “20” 08

M.O.



O‘zbekiston Respublikasi
Kambag‘alikni qisqartirish va
bandlik vaziri maslahatchisi

B.X. Umrzakov

2024 yil “26” 08

M.O.

“O‘zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari va
muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi

Direktor M. Kalonov

2024 yil “13” 08



M.O.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti
huzuridagi Statistika agentligi

Direktor B. Begalov

2024 yil “19” 08

M.O.

“Mikrokreditbank” ATB
Boshqaruvi raisi birinchi o’rinbosari

A.A. Xamidov

2024 yil “14” 08

